Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 902
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

MARKAZIY OSIYONING TOSH DAVRI TARIXINING O'RGANILISH BOSQICHLARI (XIX asr oxiri – XX asrning 30-yillari: sayyoh-kolleksionerlik va dastlabki tavsiflash)

Nozimaxon Abdushukur qizi Abduvaliyeva*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ nozima@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tosh davri tarixini o'rganishning dastlabki bosqichi, ya'ni XIX asr oxiri – XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sayyohlar, harbiy topograflar, tabiatshunoslar hamda kolleksionerlar tomonidan to'plangan arxeologik materiallarning ilmiy ahamiyati, ularning tosh davri yodgorliklarini aniqlash va tavsiflashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi va dastlabki sovet davrida olib borilgan ilmiy ekspeditsiyalar faoliyati, dastlabki arxeologik kuzatuvlar hamda tosh qurollar kolleksiyalarining shakllanish jarayoni tarixshunoslik nuqtai nazaridan baholanadi. Muallif ushbu bosqichning Markaziy Osiyo paleolitshunosligining empirik asoslarini yaratganligini, keyingi tizimli arxeologik tadqiqotlar uchun ilmiy zamin vazifasini bajarganligini asoslaydi.

Kalit so'zlar

Markaziy Osiyo, tosh davri, paleolit, mezolit, tarixshunoslik, arxeologik ekspeditsiyalar, sayyohlar, kolleksionerlar, dastlabki tadqiqotlar, arxeologik yodgorliklar.

DOI: 10.5281/zenodo.21835547

KIRISH

Markaziy Osiyoning tosh davri tarixini tadqiqi etish ishlari XIX asr oxirlaridan boshlangan bo'lib, hozirgi kungacha davrom etmoqda. Markaziy Osiyo hududida tosh davri arxeologiyasining o'rganilishi nisbatan kech boshlangan bo'lib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu mintaqadagi ilk tadqiqotlar asosan Yevropa va Rossiya olimlarining alohida sa'y-harakatlariga tayangan. O'sha davrda Markaziy Osiyoda arxeologik izlanishlar ko'proq tarixiy davr yodgorliklariga qaratilgan edi (masalan, antik va o'rta asr shaharlari), tosh davri yodgorliklariga e'tibor esa juda kam bo'lgan [1]. Haqiqatan ham, XX asr 30-yillarigacha mintaqa paleolit yodgorliklari haqida ma'lumotlar juda siyrak bo'lib, topilmalar ham tasodifiy ravishda aniqlanib, ilmiy asosda tahlil qilinmas edi [2]. Ilk topilmalarni qayd etish va ularni jamlash ishlari olib borilgan bo'lsa-da, bu izlanishlar ortida yaxlit nazariy konsepsiya yoki metodologiya yo'q edi [3].

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududidagi tosh davri yodgorliklarining tadqiq etilishi bosqichlarini dastlab rossiyalik arxeolog olima S.Shnayder fanga kiritgan. Tadqiqotchi mazkur yo'nalish tarixshunosligini uch asosiy bosqichga ajratadi: birinchi bosqich – ilmiy bilimlarning dastlabki shakllanish va jamg'arilish davri (1930-yillarning o'rtalari – 1950-yillarning boshlari), ikkinchi bosqich – keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar davri (1950-yillarning boshlari – 1980-yillarning oxiri), uchinchi bosqich esa postsovet davri (1991-yildan hozirgi kungacha). Har bir bosqich o'z navbatida ilmiy izlanishlarning xususiyati, metodologik yondashuvlari va tadqiqotlar ko'lami asosida alohida kichik davrlarga bo'linadi [4].

Ammo yuqoridagi S.Shnayder taklif etayotgan davrlashtirishda Rosiya imperiyasi davridagi eng birinchi tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik masalalari o'rin olmagan. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda

Markaziy Osiyo tosh davri tarixining o‘rganilish bosqichlarini 4 ta davrga bo‘lish mumkin: 1) XIX asr oxiri – XX asrning 30-yillari: sayyoh-kolleksionerlik va dastlabki tavsiflash; 2) 1940–1960-yillarda ilmiy tadqiqotlarning institutsionalizatsiyasi va stratigrafiya; 3) 1970–1990-yillardagi interdisiplinar izlanishlar va regional modellar; 4) 1991-yildan hozirgacha: milliy maktablar, xalqaro hamkorlik va yuqori texnologiyalar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo tosh asri odamlarining mavjudligi ilmiy jamoatchilik tomonidan hanuz shubha ostida edi. Masalan, Yevropa olimlari o‘sha paytda neandertallar Markaziy Osiyogacha yetib kelmagan, ularning tarqalish hududi asosan Yevropa bilan cheklangan deb o‘ylashgan [5]. Bu fikrning shakllanishiga mintaqada paleolit davriga oid yodgorliklarning aniqlanmagani sabab bo‘lgandi.

Shunga qaramay, ayrim tadqiqotchilar Markaziy Osiyoda eng qadimgi inson izlarini izlashga qiziqish bildira boshladilar. Jumladan, 1904-yilda amerikalik geolog va arxeolog Rafael Pumpelli Turkistonning janubi (hozirgi Turkmaniston) hududidagi Anov manzilgohida dastlabki ilmiy qazilmalardan birini o‘tkazdi [6]. Pumpellining ekspeditsiyasi Karnegiy jamg‘armasi tomonidan moliyalashtirilib, u bilan birga botanik, zoolog, geomorfolog va arxeolog Gubart Shmidt kabi mutaxassislar ham safarbar etilgan edi [7]. Mazkur xalqaro guruh Markaziy Osiyoda eng qadimgi dehqonchilik izlarini izlash maqsadida Anov tepaligida qatlamma-qatlam qazish ishlari olib bordi. Natijada miloddan avvalgi V mingyillikka oid madaniy qatlamlar ochildi; u yerda qadimgi dehqonchilikka oid dalillar – uy hayvonlari suyaklari, don qoldiqlari va sopol buyumlar topildi [8]. Pumpelli va hamkasblari ikki mavsum (1903–1904) davomida qazishmalar jarayonida tuproq namunalari, o‘simlik qoldiqlari (fitolitlar), hayvon suyaklari kabi turli ma’lumotlarni yig‘ib, o‘sha davr uchun noyob bo‘lgan kompleks tahlil usullarini qo‘lladilar [9].

1908-yilda u “Turkistonda qazilmalar” nomli yakuniy hisobotini e’lon qildi va unda Anov manzilgohida neolit davridayoq dehqonchilik madaniyati bo‘lganini ma’lum qildi [10]. Bu kashfiyot ilmiy jamoatchilikni hayratga solib, ilk dehqonchilik va sivilizatsiya faqat Mesopotamiya yoki Misrda paydo bo‘lgan, degan qarashlarni shubha ostiga qo‘ydi. Shu tariqa, Pumpelli ekspeditsiyasi Markaziy Osiyoda tosh davri va ilk neolitning mavjudligini isbotlagan dastlabki tadqiqotlardan biri bo‘ldi.

Rossiyalik olimlar ham XX asr boshlarida Markaziy Osiyoning qadimgi tarixi bilan qiziqa boshlagan edilar. 1895-yilda tashkil etilgan Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi mintaqadagi tarixiy obidalarni o‘rgana boshlagan bo‘lsa-da, tosh asriga oid topilmalar haqida faqat qisqa xabarlar berib o‘tilgan. Masalan, geolog olimlar ba’zan geologik tadqiqotlar chog‘ida qadimgi tosh qurollarni uchratib qolishgan, biroq ular ustida chuqur ilmiy tadqiqot o‘tkazilmagan. 1920-yillarga kelib, Sovet hokimiyati davrida Markaziy Osiyoda kompleks arxeologik izlanishlarni yo‘lga qo‘yish masalasi ko‘tarildi. 1924-yili taniqli arxeolog V.A.Gorodtsov “Afg‘onistonning arxeologik muammolari” nomli maqolasida Markaziy Osiyo va qo‘shni hududlarda paleolit yodgorliklarini qidirish muhimligini ta’kidlagan edi [11]. Shuningdek, 1931-yilda P.P. Efimenko “SSSR paleoliti: o‘rganish natijalari va istiqbollari” nomli maqolasida Sovet Ittifoqining Markaziy Osiyo hududlarida paleolit davri endigina o‘rganila boshlanayotganini yozib, bu borada katta kashfiyotlar qilish oldinda turgan vazifa ekanini qayd etdi [12].

Umuman olganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlari Markaziy Osiyoda tosh davri bo‘yicha dastlabki qadamlar tashlangan davr bo‘ldi. Bu bosqichda asosan individual ekspeditsiyalar va olimlarning qiziqishlari evaziga ilk ma’lumotlar yig‘ildi. Pumpellining Anovdagi ishlari va ayrim rus olimlarining eslatmalari, tosh qurollar kolleksiyalarini to‘plashga bo‘lgan intilishlari bu sohadagi ilmiy izlanishlarning debochasi bo‘ldi. Biroq tosh davri madaniyatlarini tizimli va rejalashtirilgan ravishda o‘rganish keyingi – Sovet davri bosqichida amalga oshiriladi.

XX asrning 20-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda tosh davri arxeologiyasini o‘rganish yangi bosqichga kirdi. Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan mintaqada ilmiy tadqiqotlar institutsional asosda yo‘lga qo‘yildi; Moskva va Leningraddagi (hozirgi Sankt-Peterburg) ilmiy markazlar Markaziy Osiyoda qadimgi davr madaniyatlarini izlash va o‘rganishga kirishdilar. 1920–1930-yillarda sobiq Sovet Ittifoqi Fanlar akademiyasining Moddiy madaniyat tarixi akademiyasi (ГАИМК) olimlari Turkistonga bir necha ekspeditsiyalar uyushtirdilar [13]. Biroq 1920-yillarning o‘zida tosh davri bo‘yicha hali katta kashfiyotlar qilinmadi – bu davrdagi tadqiqotlar asosan keyingi davrlarga oid yodgorliklarni (xorazmiylar davri, antik davr) o‘rganishga qaratilgan edi. Shunga qaramay, ushbu tayyorgarlik davri Markaziy Osiyoda paleolit yodgorliklarini izlash uchun poyde-

vor yaratdi. Misol uchun, 1926-yilda Toshkentda O‘rta Osiyo universiteti qoshida ilk arxeologiya muzeyi va ilmiy jamiyatlar tashkil etilib, ular tarkibida paleolit bo‘limlari ham vujudga keldi. Bu yillarda topilgan ayrim tosh qurollar kataloglashtirilib, muzeylarga topshirildi.

Sovet davridagi haqiqiy yutuqlar 1930-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab namoyon bo‘ldi [14]. Ayniqsa 1938–1939-yillar Markaziy Osiyo tosh davri tadqiqotlarida burilish nuqtasi bo‘ldi. O‘sha yillarda O‘zbekiston janubidagi Boysuntoğ hududida, Surxondaryo vohasida ilk maxsus paleolit ekspeditsiyalar amalga oshirildi. 1938-yilda rus arxeologi A.P.Okladnikov Surxondaryoning Boysun tumani yaqinida joylashgan Teshik-Tosh g‘orini qazib, dunyoga mashhur kashfiyotga erishdi [15]. Bu g‘ordan mustye (o‘rta paleolit) davriga mansub boy madaniy qatlamlar ochildi va eng muhimi – 8–10 yoshlar chamasidagi neandertal bola skeleti qoldiqlari topildi [16]. Teshik-Tosh g‘oridan aniqlangan ushbu dafn holati (bola atrofida tog‘ echki shoxlari bilan qurshalgan holda yotgan) olimlarga bu qadimgi odamlar diniy e’tiqodga ega bo‘lib, marhumlarni marosim bilan ko‘mgan degan xulosani beradi [17]. Teshik-Tosh topilmasi nihoyatda muhim edi – u Markaziy Osiyoda ham neandertal odamlar yashaganligini isbotlab, mintaqani paleolit davri xaritasiga kiritdi [18]. Ilgari ilmiy doiralarda neandertallar Sharqda, eng uzoqda Sibirning g‘arbiy qismigacha bo‘lgan, degan fikrlar hukmron edi. Teshik-Tosh neandertal bolasi esa bu taxminlarni rad etib, Markaziy Osiyoni ham neandertallar arealining bir qismi ekanini ko‘rsatdi [19].

A.P.Okladnikovning Teshik-Toshdagi ishlari Markaziy Osiyoda paleolitni o‘rganish metodologiyasining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U birgina arxeologik qazish bilan cheklanmay, turli soha mutaxassislarini jalb etdi: topilgan inson skeleti antropolog G.F.Debets tomonidan o‘rganildi [20], g‘ordagi hayvon suyaklarini paleontolog V.I.Gromova tahlil qildi [21], qush suyaklarini esa ornitolog V.P.Suslova o‘rgandi [22]. Bunday keng qamrovli tahlil natijalari keyinchalik 1949-yilda maxsus monografiyada – “Teshik-Tosh. Paleolitik odam” nomli asarda e’lon qilindi. Okladnikov 1939–1940-yillardayoq ilk ilmiy xulosalarini turli nashrlarda chop etdi: xususan, 1939-yili Leningraddagi “Moddiy madaniyat tarixi institutining qisqa xabarlari” (КСИИМК) nashrida va 1939-yil “Qadimgi Dunyo tarixi axborotnomasi” (ВДИ) jurnalida Teshik-Tosh mustye manzilgohi va neandertal bola topilmasi haqida maqolalar chiqdi [23]. 1940-yili esa O‘zSSR Fanlar Filiali asarlarida va “Советская Археология” jurnalida u ushbu topilmaning dastlabki ilmiy tahlillarini e’lon qildi [24]. Shu tariqa, Teshik-Tosh kashfiyoti Sovet davri Markaziy Osiyo arxeologiyasining eng muhim ilk natijalaridan biri bo‘ldi va u mintaqada paleolit tadqiqotlariga bo‘lgan qiziqishni keskin oshirdi.

Teshik-Toshdan ko‘p o‘tmay, 1939-yilda Okladnikov Boysun tog‘laridagi yana bir g‘or – Amir Temur g‘orini ham kashf etdi [25]. Bu g‘orda ham paleolit davriga oid qatlamlar aniqlanib, tosh qurollar va hayvon suyaklari topilgan. Okladnikovning yozishicha, Amir Temur g‘ori mustye davriga mansub bo‘lib, Teshik-Toshga yaqin madaniyati bilan ajralib turgan [26]. Bu topilma Teshik-Tosh kashfiyotini yanada mustahkamlab, Boysuntog‘ hududi o‘rta paleolit davrining muhim o‘chog‘i bo‘lganini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida ilk bor tizimli ekspeditsiyalar yo‘lga qo‘yildi, katta ilmiy kashfiyotlar qilindi va ularga tayangan holda mintaqaning tosh asri tarixi konsepsiyasi shakllantirildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

Махмудова А. Изучение каменного века в Узбекистане до 60-х годов XX века // Взгляд в прошлое. Том 7 № 9. 2024. – С. 29–36.

1. Джуракулов М. История изучения каменного века Средней Азии. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд – 1966. – С. 12.
2. Джуракулов М. История изучения каменного века Средней Азии. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд – 1966. – С. 12.
3. Шнайдер С.В. Периодизация истории изучения палеолита Узбекистана // Материалы XLIX Международной научной студенческой конференции «Студент и научно-технический прогресс»: Археология Евразии / Новосиб. гос. ун-т, ИАЭТ СО РАН. – Новосибирск, 2011. – С. 3–4.
4. Teshik-Tash 1 - Wikipedia
5. Frederik T.H. In Search of Anau’s Past // Expedition Magazine. Vol. 41, №. 2 (July, 1999). https://www.penn.museum/sites/expedition/research-notes-summer-1999/

6. Frederik T.H. In Search of Anau's Past // Expedition Magazine. Vol. 41, №. 2 (July, 1999). https://www.penn.museum/sites/expedition/research-notes-summer-1999/
7. Frederik T.H. In Search of Anau's Past // Expedition Magazine. Vol. 41, №. 2 (July, 1999). https://www.penn.museum/sites/expedition/research-notes-summer-1999/
8. Frederik T.H. In Search of Anau's Past // Expedition Magazine. Vol. 41, №. 2 (July, 1999). https://www.penn.museum/sites/expedition/research-notes-summer-1999/
9. Frederik T.H. In Search of Anau's Past // Expedition Magazine. Vol. 41, №. 2 (July, 1999). https://www.penn.museum/sites/expedition/research-notes-summer-1999/
10. Городцов В. А. Археологические проблемы Афганистана // Афганистан. – М.: Наука. 1924. – С. 12-16.
11. Ефименко П. П. Палеолит СССР. Итоги и перспективы его изучения // Сообщение ГАИМК. – М., 1931. – № 3. – С. 9.
12. https://www.researchgate.net/publication/362919161_11_The_expeditions_of_the_Academy_for_the_History_of_Material_Culture_to_Central_Asia_in_the_1920s_and_1930s_An_examination_of_its_well-known_and_unknown_photographic_collections#:~:text=ical%20heritage%3B%20however%2C%20they%20remain,researched.%20Photographs
13. Джуракулов М. История изучения каменного века Средней Азии. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд – 1966. – С. 12.
14. https://nplus1.ru/news/2022/08/13/kuksaray#:~:text=%D0%9D%D0%B0%C2%A0%D0%BF%D1%80%D0%BE%D1%82%D1%8F%D0%B6%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B8%20%D0%B4%D0%BE%D0%BB%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%BE%20%D0%B2%D1%80%D0%B5%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B8%20%D0%A6%D0%B5%D0%BD%D1%82%D1%80%D0%B0%D0%BB%D1%8C%D0%BD%D0%B0%D1%8F%20%D0%90%
15. https://en.wikipedia.org/wiki/Teshik-Tash_1#:~:text=Teshik,70%29%2C%20Central%20Asia
16. Abduvaliyeva N.A. Markaziy Osiyo o‘rta paleolit manzilgohlarining fanda o‘rganilishi tarixi (I qism) // FarDU Ilmiy xabarlari. 2024, №3. – B. 654–664.
17. https://en.wikipedia.org/wiki/Teshik-Tash_1#:~:text=Teshik,70%29%2C%20Central%20Asia
18. https://en.wikipedia.org/wiki/Teshik-Tash_1#:~:text=Teshik,70%29%2C%20Central%20Asia
19. Дебец Г.Ф. Об антропологических особенностях человеческого скелета из пещеры Тешик-Таш // Труды Узбекского филиала АН СССР, серия «История и археология». – Ташкент: Фан, 1940. – № 1. – С. 46–71.
20. Громова В.И. Плейстоценовая фауна млекопитающих из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитический человек. – М., 1949. – С. 99.
21. Суслова В.П. Плейстоценовая орнитофауна из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитичекий человек. – М., 1949. – С. 34.
22. Окладников А.П. Мустьерская стоянка в гроте Тешик-Таш в Узбекистане // КСИИМК. Вып. 2. 1939. – С. 36.; Окладников А.П. Находка неандертальца в Узбекистане // ВДИ. № 1. 1939а. – С. 78.
23. Окладников А.П. Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии (предварительные данные и выводы о раскопках в гроте Тешик-Таш) // СА. Вып. 6. 1940а. – С. 56
24. Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. – С. 67.
25. Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. – С. 67–68.